

## MOBIL ALOQA KOMPANIYALARINING TURISTIK JARAYONDAGI ROLI (BUXORO VOHASI MISOLIDA)

Hazratkulov Jahongir

*OXU Iqtisodiyot yo'nalishi II bosqich magistranti*

Buxoro vohasi iqtisodiy salohiyati turizm sohasi bilan chambarchas bog'liq bolganligi tufayli turizmni rivojlanadirish istiqbollari xususida tadqiqotlar olib borish ilm-fan oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Xorijiy sayyoohlar oqimini kengaytirishda ular uchun maksimal darajada qulayliklarni yaratish turizm infratuzilmasi bilan bog'liq tashkilotlar oldida turgan muhim vazifadir. Shunday vazifalardan biri bu-yurtimizg tashrif buyurgan sayyoohlar uchun o'z sayohatlari davomida sifatli mobil aloqa xizmatini ta'minlab berishdan iborat.

Mobil telefon hayotimiz, faoliyatimizning ajralmas qismiga aylandi. Usiz kelajagimizni tasavvur ham qila olmaymiz. Ammo internet shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda global tarmoq va boshqa yo'llar orqali xavf solishi mumkin bo'lgan turli xurujlar mobil aloqani ham chetlab o'tmaydiki, bugun aynan mobil telefon va undagi ma'lumotlarga yo'naltirilgan xatarlar va ulardan himoyalanishga to'xtalamiz.

Mobil aloqa tizimlari xizmat ko'rsatadigan hududni qamrab oladigan yachevkalar (sotalar) ko'rinishida yaratiladi. Har bir yacheykaning markazida o'z yachevkasi doirasida barcha mobil stansiyalarga xizmat ko'rsatuvchi baza stansiyasi joylashadi. Abonentning harakatlanishida tizimning yachevkalari orasida bitta baza stansiyadan boshqasiga xizmat ko'rsatishni uzatish – estafetali uzatish (handover) amalga oshiriladi.<sup>2</sup>

Barcha baza stansiyalari ajratilgan simli yoki radiorele aloqa kanallari orqali mobil aloqasining kommutatsiya markazi bilan ulangan. Mobil aloqa tizimlarining o'lchamlari katta bo'lgan holda ularda qo'shimcha kommutatsiya markazlari joylashtirilishi mumkin. Kommutatsiya markazidan umumiyl foydalanishdagi telefon tarmog'iga chiqish mavjud, u orqali mobil aloqa tizimi bilan o'zaro harakat amalga oshiriladi. Abonent boshqa mobil aloqa tizimi hududiga o'tganida unga xizmat ko'rsatish bitta mobil aloqa tizimidan boshqasiga o'tkaziladi, ya'ni rouming amalga oshiriladi.

Mobil aloqa kompaniyalarining turistik jarayondagi roli juda muhim va ko'p qirrali. Ular turistlarning safarini osonlashtirish, xavfsizligini ta'minlash va mahalliy turizmning rivojlanishiga yordam berishda katta ahamiyatga ega. Buxoro vohasi misolida bu jarayonni ko'rib chiqamiz.

Turistlar mobil aloqa vositasida o'z oilalari, do'stlari bilan bog'lanishlari, o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashishlari mumkin. Bu xalqaro turistlar uchun muhimdir. Mahalliy aloqa: Turistlar mehmonxonalar, turistik markazlar, gidlar va

<sup>2</sup> Павленко И.Г., Османова Э.У. Роль мобильных технологий в обеспечении устойчивого развития социокультурного сервиса и туристских территорий // Сервис в России и за рубежом. 2022. Т.16. №5. С. 75–88. DOI: 10.5281/zenodo.7395

## STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

transport xizmatlari bilan bog'lanishlari mumkin. Bu sayohatni rejalashtirish va tashkil etishda muhim rol o'yaydi.

Mobil aloqa favqulodda vaziyatlarda yordam so'rash va tezkor xizmatlar bilan bog'lanishda hayotiy ahamiyatga ega.

Turistlar mobil aloqa orqali internetga kirishlari, turistik joylar, diqqatga sazovor joylar, transport xizmatlari, restoranlar va boshqa muhim ma'lumotlar haqida ma'lumot olishlari mumkin. Navigatsiya: Mobil aloqa xizmatlari orqali turistlar GPS navigatsiya dasturlaridan foydalanib, o'zлari uchun kerakli joylarni osongina topishlari mumkin. Bu, ayniqsa, Buxoro vohasining tarixiy obidalari va xiyobonlari orasida adashib qolmaslik uchun muhimdir.

Turistik kompaniyalar va tashkilotlar o'zlarining mobil ilovalarini taklif etishlari mumkin, ular orqali turistlar turistik marshrutlarni rejalashtirish, chiptalar sotib olish, mehmonxonalar bron qilish va boshqa xizmatlardan foydalanishlari mumkin. Mobil aloqa orqali turistlar joylashgan joyini aniqlash va favqulodda vaziyatlarda tezkor yordam olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Tezkor aloqa: Mobil aloqa turistlar uchun favqulodda vaziyatlarda (masalan, yo'qolib qolganida, yomon ahvolga tushib qolganida) tez yordam va xavfsizlik xizmatlari bilan aloqaga chiqish imkonini beradi.<sup>3</sup>

Monitoring xizmatlari: Ba'zi mobil aloqa kompaniyalari turistik marshrutlar va joylarni monitoring qilish, xavfsizlikni ta'minlash uchun maxsus xizmatlar taklif qilishlari mumkin. Mobil aloqa kompaniyalari o'z tarmoqlari orqali turistik joylar va xizmatlarni targ'ib qilishlari, mahalliy turizmning rivojlanishiga hissa qo'shishlari mumkin.

Mobil aloqa orqali onlayn bron qilish, chiptalar sotib olish va turli turistik xizmatlardan foydalanish imkoniyati turistik jarayonni yanada osonlashtiradi.

Mobil aloqa kompaniyalari turistlarning harakatlari, ularning afzalliklari va talablari haqida ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish orqali turizm sohasiga oid samarali strategiyalar ishlab chiqishda yordam berishlari mumkin.

Buxoro vohasi o'zining tarixiy obidalari, madaniy merozi va an'analari bilan mashhur. Mobil aloqa kompaniyalari Buxoro vohasida turistik jarayonni quyidagicha osonlashtirishi mumkin.

Tarixiy obidalari haqida ma'lumot: Mobil aloqa orqali internetga kirib, turistlar Buxoro obidalari, ularning tarixi va ahamiyati haqida to'liq ma'lumot olishlari mumkin.

Mobil aloqa xizmatlari turistlarga taksi, avtobus, poyezd va boshqa transport xizmatlarini topishda va ular bilan aloqa qilishda yordam beradi.

Mahalliy hunarmandchilik va oshxona: Turistlar mobil aloqa orqali mahalliy hunarmandchilik ustaxonalarini, milliy taomlar restoranlarini topishlari, ularning xizmatlaridan foydalanishlari mumkin. Mobil aloqa kompaniyalari turli turistik marshrutlarni taklif qiluvchi mobil ilovalar va xizmatlarni taklif qilishlari mumkin.

---

<sup>3</sup> Полухина А.Н. Инновации в сфере туризма: модели, технологии и направления внедрения // Иновационное развитие экономики. 2015. №3(27). С. 28.

## STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

Xavfsizlikni ta'minlash: Buxoro vohasida turistlar uchun mobil aloqa orqali joylashuvni aniqlash va favqulodda vaziyatlarda yordam olish muhim ahamiyatga ega.

Aloqa kompaniyalari turistik jarayonda muhim rol o'ynaydi. Ular turistlarga aloqa, axborot, navigatsiya va xavfsizlikni ta'minlab, sayohatlarini osonlashtiradilar. Shuningdek, ular turizmning rivojlanishiga hissa qo'shib, turistik soha uchun raqamli marketing, e-turizm va ma'lumotlarni tahlil qilish kabi imkoniyatlarni yaratadilar. Buxoro vohasi misolida ko'rib o'tilganidek, mobil aloqa kompaniyalari turizmning rivojlanishiga katta hissa qo'shishlari mumkin.

Mobil radioaloqa (tarmoq atamasi — ko'chma radioaloqa) — abonent liniyalariga yoki aloqa kanaliga kirish [kabeldan](#) foydalanmasdan amalga oshiriladigan aloqa usulidir, abonent qurilmasi bilan aloqa esa radiokanal orqali amalga oshiriladi.<sup>4</sup>

Sotali aloqa tizimlarida (yoki hozirgi vaqtida ko'pincha atalganidek mobil aloqa tizimlarida) — avlodlar almashishi shaxsiy kompyuterlar industriyasi yoki televizion texnikaga nisbatan yaqqolroq va aniqrok bo'lmokda. Mobil aloqa dunyosida ko'p narsa hisoblidir: 1G (ingl. «First Generation»- birinchi avlod) – bu analog aloqa tizimlari (NMT, AMPS standartlari); ikkinchi avlod - 2G, kanallar kommutasiyalanishi asosida ishlaydigan raqamli aloqa tizimlari (GSM, DAMPS va sdmaOne standartlari); uchinchi avlod - 3G, kanallar kommutasiyalanishi bilan birga paketlar kommutasiyalanishini ham ko'zda tutadi (UMTS va CDMA-2000 standartlari); va, nihoyat, to'rtinchi avlod - 4G tarmoqlari to'liq paketli IPkommutasiya asosida kurredi (LTE Advanced, IEEE802.16m (WiMAX) va IEEE802.11ac (Wi-Fi) standartlari). Shunisi diqqatga sazovorki, mobil aloqa dunyosida avlodlarning almashishi muntazam ravishda har o'n yilda bo'lib o'tmoqda.

Sayyoohlar uchun qulaylik yaratish maqsadida mobil aloqa kompaniyalari ular uchun qulay tarif rejalarini ishlab chiqqan. Jumladan, mobi uz aloqa operatori tomonidan Tourist SIM, Beeline mobil aloqa operatori tomonidan "Welcome", Ucell aloqa operatori tizimida "Tourist", Uzmobile aloqa operatori tomonidan esa "Salom" kabi qulay tarif rejalar tashkil qilingan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Павленко И.Г., Османова Э.У. Роль мобильных технологий в обеспечении устойчивого развития социокультурного сервиса и туристских территорий // Сервис в России и за рубежом. 2022. Т.16. №5. С. 75–88.
- Полухина А.Н. Инновации в сфере туризма: модели, технологии и направления внедрения // Инновационное развитие экономики. 2015. №3(27). С. 28.
- Алимова М.Т. Особенности и тенденции развития регионального рынка туризма. Самарканд: СамГУ, 2017-С.40.

<sup>4</sup> З. Алимова М.Т. Особенности и тенденции развития регионального рынка туризма. Самарканд: СамГУ, 2017-С.40.

